

**BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIDA O‘QISH KO‘NIKMALARINI
SHAKLLANTIRISHDA DARS DAN TASHQARI O‘QUV
FAOLIYATINING ROLI**

*Qurbaniyozova Mardonay Fayzulla qizi
Termiz iqtisodiyot va servis Universiteti
Ijtimoiy gumanitar fanlar fakulteti
Boshlang‘ich ta’lim yo’nalishi talabasi*

Annotatsiya: Mazkur maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida o‘qish ko‘nikmalarini shakllantirishda dars dan tashqari mashg‘ulotlarning o‘rni va ahamiyati yoritilgan. Muallif dars dan tashqari faoliyatning bolalarning nutq boyligini kengaytirish, mustaqil kitob o‘qish odatini shakllantirish, matnni tushunish va tahlil qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishdagi ijobjiy ta’sirini tahlil qiladi. Tadqiqot natijalari dars dan tashqari faoliyatlar o‘quvchining ta’limiy muvaffaqiyatlariga sezilarli hissa qo‘sishini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: o‘qish ko‘nikmalari, boshlang‘ich ta’lim, dars dan tashqari mashg‘ulot, kitobxonlik, mustaqil o‘qish, nutq madaniyati

Boshlang‘ich ta’lim bosqichi bolaning shaxsiyati shakllanishi, nutq madaniyati, fikrlash doirasi va bilim olishga bo‘lgan munosabati qaror topadigan muhim davr hisoblanadi. Ayniqsa, bu bosqichda o‘qish ko‘nikmalarini shakllantirish — ta’limning asosiy vazifalaridan biri sanaladi. O‘qish — bu nafaqat texnik ko‘nikma, balki o‘quvchining idrok etish, tushunish, mulohaza yuritish va bilimlarni mustaqil o‘zlashtirishga qaratilgan faoliyatidir. Shuning uchun boshlang‘ich sinflarda o‘qish malakasini rivojlantirish o‘quvchilarning kelajakdagi ta’lim jarayonidagi muvaffaqiyatlari uchun mustahkam poydevor yaratadi.

An’anaviy dars jarayonida o‘qish bilan bog‘liq mashqlar, asosan, darsliklar va o‘qish kitoblaridagi matnlar asosida amalga oshiriladi. Biroq bu usul barcha o‘quvchilarda baravar darajada samarali natija bermasligi mumkin. Chunki har bir o‘quvchining o‘ziga xos qiziqishlari, ehtiyojlari va qabul qilish darajasi mavjud. Shu nuqtai nazardan qaraganda, dars dan tashqari o‘quv faoliyati orqali o‘quvchilarga erkin muhitda, qiziqarli shakllarda, individual yondashuv asosida o‘qish malakalarini rivojlantirish imkoniyati yaratiladi.

Dars dan tashqari mashg‘ulotlar — bu o‘quvchilarning bo‘sh vaqtlarini mazmunli o‘tkazish, ularni kitobxonlikka jalb qilish, mustaqil fikrlash va ifodali nutqini rivojlantirishga xizmat qiluvchi ta’limiy faoliyatdir. Bunday faoliyatlar bolalarda matnga bo‘lgan qiziqishni oshiradi, ularni ijodiy fikrlashga, mantiqiy tahlilga undaydi. Ayniqsa, dramatik sahnalar, badiiy o‘qish tanlovlari, kitobxonlik klublari kabi

interaktiv shakllar o‘quvchilarning emotsional va intellektual rivojlanishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi.

Ushbu maqolada aynan boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida o‘qish ko‘nikmalarini shakllantirishda darsdan tashqari mashg‘ulotlarning o‘rni va samaradorligi tahlil qilinadi. Ilmiy-tajriba asosida olib borilgan kuzatuvlар orqali o‘quvchilarning o‘qishga bo‘lgan munosabati, o‘zlashtirish darajasi va nutq faolligidagi o‘zgarishlar o‘rganiladi. Maqolaning asosiy maqsadi — boshlang‘ich sinf o‘qituvchilariga o‘qish ko‘nikmalarini shakllantirishda samarali yondashuvlarni taklif qilish hamda darsdan tashqari faoliyatning ta’lim sifatiga ijobiy ta’sirini asoslab berishdir.

Tadqiqot davomida 2-sinf o‘quvchilarini ishtirokida tajriba o‘tkazildi. Eksperimental sinfda haftada ikki marotaba “Kitobxonlik klubi” mashg‘ulotlari tashkil qilindi. Bu mashg‘ulotlarda bolalar ertaklar, hikoyalar o‘qidi, muhokama qildi va dramatizatsiya usulida namoyish etdi. Nazorat sinfi esa faqat darslik materiallari bilan cheklanib o‘qitildi. Kuzatuv, suhbat va yozma nazoratlar asosida natijalar tahlil qilindi.

Tajriba natijalariga ko‘ra, eksperimental sinf o‘quvchilarining so‘z boyligi, matnni tushunish darajasi va ifodali o‘qish ko‘nikmalari nazorat sinfidagilarga nisbatan ancha yuqori bo‘ldi. Shuningdek, darsdan tashqari mashg‘ulotlarda qatnashgan bolalar kitobga nisbatan ijobiy munosabat bildirgan, bu esa ularning ta’limdagi umumiy faolligiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatdi. Ular savol-javoblarga faol ishtirok etgan, matn mazmuni asosida mustaqil fikr yuritgan.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida o‘qish ko‘nikmalarini shakllantirish – bu nafaqat o‘qituvchining dars jarayonidagi faoliyati, balki o‘quvchining o‘z-o‘zini rivojlantirishga bo‘lgan ichki ehtiyoji, qiziqishi va faolligini rag‘batlantiradigan uzviy pedagogik jarayondir. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, darsdan tashqari o‘quv faoliyati o‘quvchilarda mustaqil o‘qish, matnni anglash, ifodali o‘qish va fikr bildirish kabi muhim kompetensiyalarni shakllantirishda samarali vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Darsdan tashqari mashg‘ulotlar – bu o‘quvchini adabiyotga oshno qilish, nutq boyligini kengaytirish, og‘zaki va yozma nutqni faol rivojlantirish hamda tafakkurni chuqurlashtirish imkonini beruvchi pedagogik maydondir. Ayniqsa, kitobxonlik klublari, badiiy o‘qish kechalari, ijodiy uchrashuvlар kabi faoliyatlar orqali o‘quvchilar orasida o‘qishga nisbatan ijobiy munosabat shakllanadi. Bu esa ularning ta’lim jarayonidagi umumiy muvaffaqiyatiga bevosita ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Shu bois, boshlang‘ich ta’lim muassasalarida o‘quv jarayonini faqat dars bilan chegaralab qo‘ymasdan, darsdan tashqari mashg‘ulotlar bilan boyitish, ular uchun alohida metodik qo‘llanmalar yaratish, o‘qituvchilarning bu boradagi malakasini oshirish dolzarb masala hisoblanadi. O‘qish ko‘nikmalarining barqaror shakllanishi uchun o‘quvchilar o‘zлari o‘qigan matnni tushunib, unga nisbatan munosabat bildirishi, tanqidiy fikrlashi va ijodiy yondasha olishi zarur. Bunga erishish esa faqatgina

integratsiyalashgan, bolaga yo‘naltirilgan va ijodiy tashkil etilgan o‘quv faoliyati orqali mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Xodjayev, N. Boshlang‘ich o‘qish metodikasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2018.
2. Tursunova, M. Boshlang‘ich sinflarda kitobxonlikni shakllantirish usullari. – Andijon, 2021.
3. Qodirova, M. Kitob – ma’naviyat manbai. – Toshkent: Ma’naviyat, 2020.
4. Vygotsky, L. S. Pedagogik psixologiya. – Moskva: Pedagogika, 1991.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 14-sentabrdagi PQ-4820-son qarori. “Yoshlar kitobxonligini oshirish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi”.